



## ALZGEYMER KASALLIGI: KLINIK-XUSUSIYATLARI, DIAGNOS TIZIMI VA DAVOLASHGA YONDASHUVLAR.

**G'ulomqodirov Muzaffar Maxmit o'g'li**

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti*

*«Nevrologiya va psixiatriya» kafedra assistenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alzgeymer kasalligining etiopatogenezi, klinik belgilari, diagnostika usullari hamda zamonaviy davolash va profilaktika yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Kasallikning surunkali va progressiv kechishi sababli erta tashxis qo'yish, simptomatik terapiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatloving ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Alzgeymer kasalligi, demensiya, beta-amiloid, kognitiv buzilishlar, neyrodejenerativ kasalliklar.

### Kirish

Alzgeymer kasalligi (AK) — bu asosan qarilik davrida namoyon bo'ladigan, sekin rivojlanadigan va kognitiv funktsiyalarning progressiv buzilishi bilan kechadigan neyrodejenerativ kasallikdir. XX asr boshida nemis nevropatologi A. Alzheimer tomonidan ilk bor tasvirlangan ushbu kasallik hozirda demensyaning eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi .

### Etiopatogenez va xavf omillari

Kasallikning asosiy patogen mexanizmlari quyidagilardan iborat:

**Beta-amiloid plaqalarining to'planishi:** Bu oqsillar neyronlararo bo'shliqda to'planib, neyronlar o'limiga sabab bo'ladi.

**Tau proteinining patologik o'zgarishlari:** Neyron ichida mikrotrubachalarni barbos qiluvchi tuzilmalar paydo bo'ladi.

**Genetik omillar:** APOE ε4 alleli mavjud shaxslarda kasallikning rivojlanish xavfi 2-3 barobar yuqori.

**Yurak-qon tomir tizimi bilan bog'liq kasalliklar,** gipertoniya, giperkolesterinemiya va diabet.

### Klinik belgilari

Alzgeymer kasalligi bosqichma-bosqich rivojlanadi:

**Erta bosqich:** qisqa muddatli xotiraning buzilishi, ismlar, sanalar va joylarni eslab qolishdagi qiyinchilik.

**O'rtacha bosqich:** nutq buzilishi, muomala qobiliyatining zaiflashuvi, vaqt va joyda yo'qolish holatlari

**Og'ir bosqich:** bemor o'zini parvarish qila olmaydi, yaqinlarini tanimaydi, motilitet susayadi, disfagiya va afaziya rivojlanadi.

### Diagnostika

AK tashxisi asosan klinik kuzatuv va nevropsixologik testlarga asoslanadi:



**MMSE (Mini-Mental State Examination)** – kognitiv holatni baholash uchun keng qo'llaniladi;

**MoCA (Montreal Cognitive Assessment)** – erta demensiyani aniqlashda yuqori sezuvchanlikka ega;

**MRI yoki KT** – miya atrofiyasini, ayniqsa gipokampus sohasidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi;

**PET yoki SPECT** – metabolik faoliyat va beta-amiloid yig'ilishini baholash uchun.

### Davolash

Hozirgi vaqtida Alzgeymer kasalligini to'liq davolash imkonи yo'q, ammo simptomatik yondashuvar yordamida kasallik rivojlanishini sekinlashtirish mumkin.

### Farmakologik davolash:

**Asetikolinesteraza ingibitorlari:** Donepezil, Rivastigmin, Galantamin — xotirani va aqliy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi.

**NMDA retseptor antagonisti:** Memantin — glutamat ta'sirini modulyatsiya qiladi.

### Nofarmakologik yondashuvarlar:

Kognitiv treninglar va reabilitatsiya mashg'ulotlari;

Jismoniy faollikni saqlash;

Ijtimoiy va oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish [9].

### Profilaktika

Kasallikning oldini olishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- Sog'lom ovqatlanish (Mediterranean dietasi);
- Jismoniy faollik;
- Intellektual mashg'ulotlar bilan muntazam shug'ullanish (kitob o'qish, musiqiy asbob chalish, til o'rganish) [10];
- Yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va nazorat ostida saqlash.

### Xulosa

Alzgeymer kasalligi global sog'liqni saqlash tizimi oldidagi jiddiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Uning erta aniqlanishi, zamonaviy diagnostika usullaridan foydalanish va simptomatik davolash orqali bemorning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Ilm-fan va amaliy tibbiyotda ushbu sohadagi tadqiqotlar davom etmoqda, ayniqsa, genetik terapiya va antitela asosidagi yondashuvarlar istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гуломкодиров, М. (2023). ДЛИТЕЛЬНЫЕ СТАДИИ ПОЗДНЕЙ ШИЗОФРЕНИИ РЕМИТИРУЮЩЕГО ТИПА. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 349-355.



2. Muzaffar, G. (2023). Features of Reactive Psychosis in Schizophrenia. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(1), 44-49.
3. Muzaffar, G. (2023). Modern Concepts About Schizophrenia. *Eurasian Medical Research Periodical*, 16, 37-41.
4. Гуломкодиров, М., & Машрапов, Ж. (2022). Эмпирический поиск взаимосвязи когнитивного функционирования и общеклинической картины у больных шизофренией. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 1(5), 221-223.
5. Долимова, М. А., Аграновский, М. Л., Солиев, Д. М., & Гуломкодиров, М. М. (2022). Роль поддерживающей терапии в сравнительной эффективности качества и структуры ремиссий при рецидивной шизофрении. *Искусство медицины. Международный медицинский научный журнал*, 2(1).
6. Аграновский, М. Л., Гуломкодиров, М. М., Далимова, С. А., & Муминов, Р. К. (2022). Анализ данных отдалённого катамнеза при шизофрении с ремиттирующим типом течения. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 285-288.
7. Аграновский, М. Л., Гуломкодиров, М. М., Муминов, Р. К., & Далимова, С. А. (2022). Отдаленный этап шизофрении с ремиттирующим типом течения и расстройств шизофренического спектра. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 289-292.
8. Ғуломқодиров, М. (2021). Юрак-қон томир касалликлардаги депрессия холатини ташҳислаш ва даволашни такомиллаштириш. *Интернаука*, (17-4), 61-62.
9. Ғуломқодиров, М. (2021). Афъюнга қарамлик хосил булиш динамикаси ва хусусиятлари. *Интернаука*, (20-7), 23-25.
10. Muzaffar, G. U. (2024). IJOBIY VA SALBIY SINDROMLAR SHKALASI (PANSS). *SO 'NGI ILMY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(2), 147-149.
11. Muzaffar, G. U. (2024). NICOTINTHERAPY. *IMRAS*, 7(1), 798-799.
12. Maxmit o'g, G. U. M. (2023). APATIK DEPRESSIYA: TUZILISHI VA DINAMIKASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMYI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(24), 226-229.
13. Музффар, Ф. (2023). БОФЧА ЁШИДАГИ БОЛАЛАРДА БИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 2(20), 26-29.
14. Muzaffar, G. (2023). Family Approach in PsychoCorrection of Disorders Identities of Patients with Schizophrenia. *Eurasian Medical Research Periodical*, 20, 243-247.
15. Dolimova, M. A., Agranovsky, M. L., Soliyev, D. M., & Gulomkodirov, M. M. (2022). The role of maintenance therapy in comparative effectiveness of the quality and structure of remissions in recurrent schizophrenia. *Art of Medicine. International Medical Scientific Journal*, 2(1).



16. G'ulomqodirov, M. M. (2024). REMITTIRLASHGAN TIPDAGI KECHUVCHI SHIZOFRENIYANING UZOQ BOSQICHLARI: TIPOLOGIYASI, KLINIKO-PSIXOPATOLOGIK XUSUSIYATLARI, PROGNOZI, PROFILAKTIKASI. *IMRAS*, 7(6), 383-386.
17. Maxmit o'g, G. U. M. (2025). NEVROTIK DEPRESSIYA: KLINIK KO'RINISHLAR, OLDINI OLISH VA DAVOLASH CHORALARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(36), 220-222.
18. Muzaffar, G. U. (2025). SHIZOFRENIYA KASALLIGI HAMDA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 4(41), 83-85.
19. Ibodullayevich, F. N., Al-Hussainy, A. F., H Tizkam, H., AbdulHussein, A. H., Salah, O. H., Edan, R. T., ... & Kamola Muminovna, A. (2024). Exploiting pH-Sensitive Polymer Micelles Nanoparticles for Paclitaxel Delivery and Tumor Suppression: Advanced Targeted Cancer Therapy. *Journal of Nanostructures*, 14(3), 945-952.